

2026- yil 25-fevral kuni Vobkent tuman Mo`minobod MFYda tashkil etilgan ko`chma kutubxona kitobxonlari bilan birgalikda **“Vobkent – o`tmishi ulug` makon tarixiga nazar”** nomli kitobi taqdimoti o`tkazildi.

**Ishtirok etdilar:** Vobkent tuman axborot-kutubxona markazi xodimlari, Maktabgacha va maktab ta`limi va 40- son umumta`lim maktabining o`qituvchi va 10- sinf o`quvchilari.

**Jami:** 35 nafar

**Tashkilotchilar:** Vobkent tumani axborot-kutubxona markazi xodimlari

**Tadbirni o`tkazishdan maqsad:** **“Vobkent – o`tmishi ulug` makon tarixiga nazar”** kitobini keng kitobxonlar ommasiga tanishtirish.


Vobkent tuman axborot-kutubxona markazi mutaxassisi B.Nizomova 40-son maktab o`quvchilariga **“Vobkent – o`tmishi ulug` makon tarixiga nazar”** nomli kitobni tanishtirdi.

Ushbu kitobda, **VOBKENT** (o`g`uz shevasidagi «vob» yoki «vahobkent» — «bo`z, qo`riqaagi qishloq» ma`nosida) — Buxoro viloyatidagi shahar (1981-y. dan). Vobkent tumanining ma`muriy markazi. Vobkent — ko`hna shaharlardan biri. O`rta asrlarda Vobkent atrofida bir necha qishloq-qo`rg`onlar bo`lgan. Vobkentning g`arbida joylashgan Narshax qishlog`i shulardan biri. 10-asrda yashagan tarixchi olim Narshaxiy shu qishloqda tavallud topgan. Narshax qishlog`i Muqanna qo`zg`oloni markazlaridan biri bo`lgan.


Vobkent 14-asr hujjatlarida o`z qozisiga ega bo`lgan qasaba, ya`ni shahar sifatida Vobkana nomi bilan tilga olinadi. 16-asrdan boshlab Vobkent ikki nom — Vobkana va Komot deb yuritila boshlagan. 17-asrning tarixchi olimi Mahmud ibn Valining («Bahr ul-asror»; 1634—41) kitobida Vobkent tumani nomi Komot shaklida keltiriladi. Vobkent haqida Mirzo Badening «Majma` al-arqom» («Raqamlar majmui»; 18-a.) kitobida ham ma`lumotlar uchraydi. 19-a. 2-yarmiga oid vaqf hujjatlarida keltirilishicha, Komot tumani (hoz. Vobkent tumani)dagi Narchoq (Narshax) qishlog`ida hunarmandlar ko`p bo`lgan. V . da qadimda Madrasa, xammom, bozor masjidi, Ko`hna Vobkand, Vobkand Qo`rg`oni kabi tarixiy obidalar bo`lib, hozirda saqlanmagan- kabi ma`lumotlar borligini ta`kidladi.

Murtazoyeva Nafosat, Alimova Shoxsanam va Akobirov Jamshidlar kitobga qiziqish bildirdilar.

Vobkent tumanining har bir qishloqlariga berilgan aniq faktlar barchaga manzur bo`ldi.



AKM mutaxassisi:



*Beky*



B.Nizomova